



91. Aylana yordamida naqsh chizish

Yondosh mavzu:
ornament.









Doira, aylana,
radius, diametr.



1. Rasmlarga qarang va qanday qilib sirkulsiz aylana chizish mumkinligini tushuntiring. Shu usullardan biri bilan aylana chizing.



2. Sirkul yordamida gulni qanday chizish mumkinligini o'rganib oling.




91. Aylana yordamida naqsh chizish




3. Qoidalardan foydalanib, o'z gulingizni chizing va uni o'zingiz istagan ranglarga bo'yang.

Qoidalar

1. Sirkul bilan aylana chizing.
2. Sirkulning holatini o'zgartirmagan holda, uning ignasini aylananining istalgan joyiga qo'yib, yana aylana chizing.
- 3–7. Har bir yangi aylananining birinchi aylana bilan kesishish nuqtasini keyingi aylanalar uchun markaz qilib oling.
8. Hosil bo'lgan gulni bo'yang.



4. Bu naqshni qanday chizishni o'rgananing. O'z naqshingizni chizing.



5. Amallarni bajaring.

$$\begin{aligned}935\ 750 - 380 \cdot (490 : 70) \cdot 10 \\(2748 + 3696) : 6 \cdot 20 + 178\ 320\end{aligned}$$



6. Chiziq va aylanalardan o'zingiz yangi naqsh o'ylab toping. Uni daftaringizga chizing va bo'yang.